

BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDA MEDIA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI

Suvanova Nilufar Akbarovna

Samarqand shahar 29-maktab oliy toifali o'qituvchi

E-mail: shohjahonabduvakilov@gmail.com

Rustamova Adash Eshankulovna

Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti, PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qish darslarida media resurslardan samarali foydalanish usullari yoritilgan. Maqolada o'qitish jarayonida audio, video, rasm, interaktiv o'yinlar kabi media vositalarning o'quvchilar tafakkuri, nutqi va ijodkorligini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, media resurslardan foydalanishning bosqichlari, ularni dars maqsadiga moslashtirish, texnik va psixologik jihatlariga e'tibor berish zarurligi haqida fikr yuritilgan. Media resurslar yordamida o'qish darslarining samaradorligi va o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishi ortishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Media resurslar, boshlang'ich ta'lim, o'qish darsi, o'qitish usullari, interaktivlik, multimedia, ijodkorlik.

KIRISH.

Hozirgi kunda axborot texnologiyalari hayotimizning barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Ta'lim tizimi ham bu jarayondan mustasno emas. Shu sababli elektron ta'lim platformalarini yaratish va ularni samarali qo'llash masalasi dolzarb hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun dars jarayonida media resurslardan foydalanish o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning idrokini kengaytirish va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Boshlang'ich sinfda o'qish darsi — bu nafaqat harflarni o'rganish, balki insonning fikr dunyosini, axloqini, tafakkurini va ma'naviyatini shakllantiruvchi eng asosiy darslardan biridir. Shu sababli, o'qish fani butun ta'lim jarayonining poydevori hisoblanadi. O'qish savodxonlik darslari o'quvchilarda savodxonlik va tafakkurni shakllantiradi. Bilimga bo'lgan qiziqishni oshiradi va nutq madaniyatini rivojlantiradi hamda tarbiyaviy ahamiyatga ega. O'qish darslarida video, audio, animatsiya, taqdimotlar va interaktiv o'yinlar kabi media vositalardan foydalanish o'quvchilarning matnni chuqurroq tushunishiga, obrazli fikrlashiga va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar zamonaviy ta'limning eng muhim talablaridan biri — o'quvchini faol ishtirokchi sifatida dars jarayoniga jalb etish imkonini yaratadi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'qish darslarida media resurslardan samarali foydalanish usullarini o'rganish, ularning afzalliklari va amaliy qo'llanilishini tahlil qilish bugungi kunda juda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Media resurs tushunchasi: Media resurslar — ta'lim jarayonida ma'lumotlarni vizual, audio yoki interaktiv shaklda yetkazish uchun ishlatiladigan vositalar majmuasi. Bunday resurslar o'quvchilarning e'tiborini jalb qilish, darsni qiziqarli va samarali qilish, tushuntirishlarni osonlashtiradi. Ta'limda media resurslar nafaqat axborotni etkazish vositasi, balki o'quvchilarning fikrlash, tahlil qilish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beruvchi pedagogik vosita sifatida ham ishlatiladi.

Matnli resurslar — ta'lim jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun ishlatiladigan asosiy vositalardan biridir. Ular darsliklar, qo'llanmalar, ish daftaridagi mashqlar, kitoblar, maqolalar va boshqa yozma materiallarni o'z ichiga oladi. O'quvchilarga matnli resurslarni to'g'ri tanlash va ulardan samarali foydalanishni o'rgatish, ularning mustaqil o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning eng muhim shartlaridan biridir. Matnli resurslar, bir tomondan, ma'lumotni to'g'ri va tizimli shaklda taqdim etsa, ikkinchi tomondan, o'quvchilarda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini shakllantiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun

matnli resurslar qiziqarli, sodda va tushunarli bo'lishi kerak. Shu bois, ularni tanlashda yosh xususiyatlarini, o'quvchilarning qiziqishlarini va darsning maqsadini hisobga olish zarur.

Adabiyotlar tahlili. Ta'lim jarayonida media resurslardan foydalanish samarali ekanini bir qator tadqiqotlar tasdiqlaydi. [1]. Dimona Yaneva (2024) Birinchi sinf o'quvchilarida funksional savodxonlikni rivojlantirish va barqaror rivojlanish ko'nikmalarini shakllantirishda raqamli ta'lim resurslaridan foydalanishning samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini o'rganib, amaliy tavsiyalar bergan. [2]. Susan m. Kafu (2024) Keniya boshlang'ich maktablarida ilg'or media resurslarni joriy etish: O'qituvchilarning bilim darajasining ta'sirini o'rganib, amaliy tavsiyalar bergan. [3]. María Isabel Vidal-Esteve, Sebastián Martín-Gómez (2023) sinfda raqamlashtirish jarayoni: Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda raqamli o'quv materiallaridan foydalanish bo'yicha o'qituvchilarning qarashlarini solishtirish orqali natijalarni tahlil qilgan. [4]. Abdulkarim Abdullahi, Margareta. Amao, Umar Abubakar [2024] boshlang'ich maktablarda ta'lim jarayonini yaxshilashda audio-vizual resurslarning ta'sirini o'rganib chiqib imkoniyatlarini tahlil qilgan. [5]. Ziyodaxon Qurbanova (2024) Boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya jarayonlarida multimedia vositalaridan foydalanishning samarasini o'z tadqiqotida tasdiqlaydi. [6]. Nozima Shonazarova (2023) Boshlang'ich sinf o'quvchilarga dars o'tish jarayonida multimedia vositalaridan foydalanishning ijobiy va salbiy taraflarini tahlil qilgan. [7]. Ikromova Sitara Akbarovna (2024) Boshlang'ich sinflarda o'qitishda multimedia texnologiyalarining roli haqida tavsiyalar ishlab chiqdi.

Media resurslarning turlari:

1. Audio resurslar– asarlar, hikoyalar, she'rlarning audio variantlari, podkastlar.
2. Video resurslar– badiiy film parchalari, multfilmlar, hikoyaning sahnalashtirilgan shakli.
3. Rasm va grafik materiallar – muallif, qahramonlar, voqealar sodir bo'lgan joylar suratlari.
4. Interaktiv taqdimotlar va ilovalar – Power Point, Genially, Canva, Learning Apps, Wordwall va h.k.
5. Elektron darsliklar va onlayn kutubxonalar – Ziyonet, Kitob.uz, e-Library.uz va boshqalar.

Vizual resurslar: Diagramma, rasm, grafiklar orqali mavzuni tushuntirish. Bu matnni tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini oshiradi.

Audiovizual vositalar: Video, audio materiallar orqali darsni boyitish. Diqqatni jalb qiladi, mazmunni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Interaktiv vositalar: Kompyuter, planshet dasturlari, elektron testlar. Tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Mutaxassislar boshlang'ich sinf o'qish darslarida media resurslardan foydalanishning bir qator usullarini o'rganishgan. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qish darslarida media vositalar yordamida matnlarni o'rganish, tahlil qilish va tasavvur qilish jarayoni samarali kechadi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning fikrlash, idrok etish va xotira qobiliyatlari endi shakllanayotgan bo'ladi. Shu sababli ularning diqqatini ushlab turish, tasavvurini boyitish uchun ko'rish, eshitish va harakat orqali o'rganish muhimdir. Media resurslar shu jarayonni quvvatlaydi.

O'qish darslarida media resurslar o'quvchilarni matn mazmunini yaxshiroq tushunishga yordam beradi, o'quvchilarning eslab qolish qobiliyatini kuchaytiradi va darsni jonlantiradi hamda qiziqarli qiladi. Shu bilan birga o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi.

Boshlang'ich sinfda media resurslardan foydalanish usullari

1. Motivatsiya berish usuli. Bu usulda dars boshida media yordamida o'quvchilarni mavzuga qiziqtirish: Masalan, “Oltin tarvuz” ertagini o'rganishdan oldin uning qisqa multfilmini ko'rsatish kerak. So'ngra o'quvchilarga savol berish lozim “Endi nima bo'ladi deb o'ylaysizlar?”. O'quvchilar voqeani taxmin qilishadi va ertakni davom ettirishadi.

2. Tinglab tushunish usuli. O'quvchilar hikoya yoki she'rni audio shaklda eshitishadi. So'ng “ hikoya kim tomonidan so'zlab berildi?”, “voqealar qayerda bo'lib o'tdi?” kabi savollar bilan tahlil qilinadi. Bu usul o'quvchilarning eshitish orqali idrok etish qobiliyatini rivojlantiradi.

3. Ko‘rish orqali o‘qitish usuli. Hikoya yoki she‘r voqealari rasmlar, slaydlar yoki qisqa video orqali ko‘rsatiladi. O‘quvchilar ko‘rgan voqeani matn bilan solishtiradilar. Bu usul o‘quvchilarda tasavvur va tahlil ko‘nikmasini rivojlantiradi.

4. Muammoli vaziyatlar usuli. Video yoki rasmda tasvirlangan vaziyat asosida savollar beriladi: “Siz bo‘lsangiz nima qilgan bo‘lardingiz?” Bu orqali o‘quvchilar fikrlash, mulohaza yuritishni o‘rganadilar.

5. Interaktiv mashg‘ulotlar usuli. Dars yakunida o‘qituvchi tomonidan avvaldan o‘tilgan mavzuga mos avvaldan tayyorlangan onlayn o‘yin yoki testlardan foydalanib darsni mustahkamlasa va o‘quvchilarni baholash mumkin. Har bir to‘g‘ri javob uchun ball yoki yulduzchalar berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu usul motivatsiyani oshiradi va darsni o‘yin shaklida yakunlaydi.

6. Ijodiy loyiha usuli. O‘quvchilarga o‘qilgan hikoya asosida rasm, video hikoya yoki audio ertak tayyorlash topshiriladi. Bu usul ijodkorlik va media savodxonlikni shakllantiradi.

Media resurslardan foydalanishning afzalliklari. O‘quvchilar dars jarayonida faol ishtirok etadi. Darslar qiziqarli, rang-barang va esda qolarli bo‘ladi. O‘quvchilarning nutqi, tafakkuri va estetik didi rivojlanadi. Media orqali o‘quvchilar axborotni tahlil qilish, solishtirish va baholashni o‘rganadi.

E‘tibor berish kerak bo‘lgan jihatlar. Media materiali o‘quvchilarning yoshi va psixologik tayyorgarligiga mos va mualliflik huquqiga rioya qilish zarur. Darsda texnik vositalar oldindan tayyor holatda bo‘lishi kerak. Media o‘rni asosiy emas, yordamchi vosita sifatida qo‘llanilishi lozim.

Darslar jonli va qiziqarli bo‘ladi. Eshitish, ko‘rish va o‘qish orqali o‘rganish uyg‘unlashadi. Har bir o‘quvchining faolligi oshadi. Zamonaviy texnologiyalar orqali ijodiy yondashuv rivojlanadi.

Xavfsizlik va axborot madaniyati: Internet va interaktiv platformalardan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish.

Doimiy yangilanish va tajriba almashish: Media resurslar va pedagogik texnologiyalar doimiy yangilanadi, shuning uchun o‘qituvchi o‘z tajribasini yangilashi kerak.

Maktab ichidagi metodik kengash va onlayn hamjamiyatlar orqali tajriba almashish tavsiya etiladi.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun **media materiallar** o‘qish savodxonligini shakllantirishda psixologik va pedagogik jihatdan katta ahamiyatga ega: Diqqatni jalb qiladi va e‘tiborni ushlab turadi. Motivatsiyani oshiradi va qiziqish uyg‘otadi. Ko‘rish va tinglash orqali o‘rganishni osonlashtiradi. Individual o‘rganish, kognitiv va kommunikativ ko‘nikmalarni mustahkamlaydi. Shuning uchun boshlang‘ich sinf darslarida media materiallarni pedagogik va psixologik jihatdan maqsadga muvofiq qo‘llash o‘quv jarayonini samarali qiladi va o‘qish savodxonligini yuqori darajada rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Johnson P., Smith L. Multimodal Approaches in Education: Enhancing Comprehension Skills. Journal of Educational Research, 2019, Vol. 62, No. 4, pp. 215–230.
2. Lee H., Kim S. Implementing Multimodal Strategies in Classroom Learning. International Journal of Pedagogy, 2020, Vol. 15, No. 2, pp. 45–60. October, 2025
3. Brown A., Taylor J., White R. Interactive and Multimodal Resources for Student Engagement. Education and Technology, 2018, Vol. 28, No. 3, pp. 110–125.
4. Wang L., Zhang Q. Multimodal Teaching for Complex Topic Understanding. Journal of Modern Education, 2021, Vol. 33, No. 1, pp. 78–92.
5. Ahmed R., Khan M. Assessing Comprehension Skills through Multimodal Methods. Journal of Educational Assessment, 2020, Vol. 12, No. 2, pp. 30–45.
6. Ivanova T., Petrova N. Pedagogical Innovations and Multimodal Approaches in Education. Russian Journal of Education, 2019, Vol. 7, No. 3, pp. 56–70.
7. Smith J., Clark P. Visual and Audiovisual Tools in Multimodal Learning Environments. Educational Technology Review, 2021, Vol. 18, No. 4, pp. 99–115.